



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xotamova Guljahon Solijonovna**

*SamVMI akademik litseyi o'qituvchisi*

## O'ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDA QIZ BOLA YOZMA NUTQI HARF SHAKLLARINING XUSUSIYATLARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada o'smir qizlar yozma nutqining grafologik nuqtayi nazardan o'rganish me'yorlari haqida so'z yuritilgan. Grafologiya tarmoqlari va uning lingvistik ekspertizadagi ahamiyati, harf shakllari o'zgarishlarining matn muallifini aniqlashdagi o'rni, o'smir qizlar yozma nutqi harf shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Shuningdek, grafologik kriminalistikaga oid lingvistik qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender, genderolingvistika, amaliy tilshunoslik, lingvistik ekspertiza, yozma nutq, grafologiya, diagnostika, identifikatsiya qilish, tabiiy nutq, spontan nutq.

Bugungi kunga kelib dunyo tilshunosligida tilni immanent o'rganishdan tilni uning egasi bilan bog'lab o'rganish, ya'ni antropotsentrik tadqiq usuliga o'tildi. Antroposentrizm ustunlik qiluvchi tilshunoslik yo'nalishlarida mutaxassis lingvistik nazariyalar tadqiqi ustida emas, balki nutq ijrochilarining shaxsi, manfaati uchun ahamiyatli nutqiy jarayonlar ustida ish olib boradi.<sup>1</sup> Mavzuning bu tarzda qo'yilishi tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi natijasida hosil bo'lgan genderolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvistik ekspertiza, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi kabi qator yo'nalishlar shakllandi.

<sup>1</sup>Димитрова С. По спиралата на лингвистичните идеи // Актуални проблеми на лингвистиката. По случай 80-годишнината на проф. Стефана Димитрова / под ред. на М. Стаменов, И. Панчев. София :Акад. Изд. «МаринДринов»., 2016, С. 13–25.

Genderolingvistika sohasi ham ana shunday fanlardan bo'lib, unda til hodisasi gender (jins) parametrlari yordamida tadqiq etiladi. Har qanday matnda uning muallifiga xos qator belgilar, jumladan, jinsiy belgilar ham o'z aksini topadi. Shu sababdan barcha matnlarni gender aspektida o'rganish juda muhim xulosalarni ilgari surishga asos bo'lishi shubhasiz. Gender va jins tushunchalarini lingvistikada leksik dublet sifatida qo'llash mumkinmi, erkaklar va ayollarning og'zaki xulq-atvorida farqlar mavjudmi va ularni nima keltirib chiqaradi degan savollarga javob topish masalasi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan va tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Bundan tashqari, ilm-fan, xuddi shu kishining ijtimoiy, xususan, gender rolini o'zgartirganda nutqi qanday o'zgaradi degan savollarni ko'rib chiqmagan. Zamonaviy lingvistik genderologiyaning mohiyati va asosiy vazifasi ham yuqoridagi savollarga javob topishga qaratilgan bo'lib, bu sohada jahon tilshunosligida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va uning ilmiy asoslari, tadqiqot yo'nalishlari, o'rganilish obyekti ishlab chiqilgan. Yozma nutq orqali shaxsning xulq-atvori, individual xususiyatlari va jins jihatdan farqlanishini o'rganishga bag'ishlangan gender lingvistikasi sohasidagi ishlar E.I. Goroshko, T.V. Gomon, E.S. Oshepkova, A.V. Kirilina, E.A. Zemskaya, A.S. Kopyak, Y.A. Samotuga, Issers, Galperin, Babayeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ahamiyatli tomoni shundaki, har bir tadqiqotchi gender tilshunosligining ma'lum bir qirrasini to'laqonli yoritishga va shu orqali jinsiy farqlilikni aniqlab, matn muallifining shaxsiyatiga doir aniq ma'lumotlarni ochib berishga harakat qiladi.

Rossiyada gender lingvistikasi taxminan yigirmanchi asrning oxirida paydo bo'ldi. Ushbu soha bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning dastlabkisi, shubhasiz, E.A. Zemskaya tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, unda birinchilar qatorida erkak va ayol nutqi, ularning lingvistik farqlanishi va xulq-atvorini aniqlashda asosiy vosita ekanligi mavjud dalillar asosida yoritib berilgan. Zemskayaning fikricha, og'zaki nutq tadqiq etilayotgan shaxsning, ya'ni nutq muallifining jinsini aniqlash uchun hech qanday ahamiyatga ega emas<sup>2</sup>. Chunki har qanday shaxs yozma nutqda o'zining individual xarakter xususiyatlarini to'la namoyon etadi va tadqiqot obyekti sifatida o'rganiladi. Nutq so'zlashlarining akustik xususiyatlari, shu jumladan nutq xabarining muallifini aniqlash uchun ovozli nutqni tekshirishdan farqli o'laroq, yozma matn bir qator xususiyatlarga ko'ra: grafologik, grammatik, semantik, pragmatik, tilshunoslik fanida ko'p qo'llanadigan an'anaviy usul va yondashuvlardan foydalanish orqali tahlil qilinadi.

Yozma nutqni lingvistik tahlil qilish davomida munozarali holatlarda yozma matndan amaliy muammolarni hal qilish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga ham ega bo'lish mumkin, chunki bu nutq turi ko'pincha bilimlarni qayta ishlash va uni ijtimoiy maqbul shakllarda taqdim etish natijasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, kompyuter vositasida zamonaviy og'zaki yoki yozma muloqotda matnning yangi "reifikatsiya qilish shakllari" paydo bo'lishi yozma nutq orqali tabiiy yozma nutq, ya'ni nutq faoliyati va uning turli xilligini tushunishga imkon beradi. "og'zaki / yozma" va "tabiiy / sun'iy (spontan)" nutq

---

<sup>2</sup>Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования / И. Р. Гальперин. - М. : Наука, 1981. - 140 с.

koordinatalari asosida qurilgan paradigmada o'z mavqeyini egallaydigan natija (matnlar)lar hosil bo'ladi<sup>3</sup>.

Yozma nutqni tadqiq etishda nutqqa xos bir qator lingvistik xususiyatlar, jumladan, orfografik, fonetik, lesik-semantik, stilistik va grammatik farqlanishlar va shaxsga xos individuallikka asosiy e'tibor qaratiladi. Hozirgi kunda sud lingvistik ekspertizasida yozma nutq orqali shaxs stereotiplarini aniqlashda asosiy yo'nalish sifatida grafologik ekspertizadan unumli foydalanilmoqda.

Jamiyatda ijtimoiy fanlarning o'zaro bog'liqligi, fanlararo aloqalarning rivojlanishi, xususan, til va huquq fanlarining bir-birini taqozo qilishi, yuridik materiallarni til nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga ehtiyoj yangi yo'nalish-lingvistik ekspertizaning shakllanishiga olib keldi. Bu yo'nalish esa o'z navbatida grafologiya, ya'ni yozuv xususiyatlari yodamida inson shaxsini aniqlash sohasi bilan uzviylikda rivojlanib bormoqda. Grafologiyaning sud lingvistik ekspertizasidagi roli o'ta muhimdir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvoh shaxsini aniqlab berish va noma'lum jinoyatchining psixologik portretini chizishda ekspertlar, asosan, grafologiya elementlari va aniqlash usullaridan foydalanadi.

Bir qator rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh, Rossiya, Germaniya va Fransiyada grafologiya boshqa fan tarmoqlari kabi jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda ham sud-huquq tizimida ushbu sohadan unumli foydalanib kelinmoqda.

**"Grafologiya"** so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "grapho" - yozuv va "logos" - o'qitish, ta'limot degan ma'nolarni anaglatadi. Grafologiya insonning xarakter xususiyatlarini uning yozuvi orqali tadqiq etadi. Ushbu atamani ilk bor Jan-Ippolit Mishon 1872-yilda o'zining "Xat sirlari" asarida qo'llagan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilida "xat" atamasining bir nechta ma'nolari mavjud. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da xat atamasining quyidagi ma'nolari keltirib o'tilgan:

- 1) yozuv, yozilgan, chizilgan yoki o'yib tushirilgan belgilar;
- 2) yozuvda ishlatiladigan grafik belgilarharflar tizimi;
- 3) biror xabar berish yoki fikr almashish maqsadida aniq manzilga, asosan, pochta orqali yuboriladigan, matn yozilgan qog'oz;
- 4) harflarni yozishdagi o'ziga xos uslub;
- 5) savodharf tanish;
- 6) rasmiy qog'oz, hujjat;
- 7) satr, misra.<sup>4</sup>

Ammo sud ekspertisasi doirasida, V.V.Tomilin tomonidan tuzilgan quyidagi ta'rif qabul qilingan: "Yozma nutq - bu ma'lum bir shaklda tovushli nutqni aks ettiradigan va bu nutqni

---

<sup>3</sup>Лебедева, Н. Б. Естественная письменная русская речь: проблемы изучения / Н. Б. Лебедева // Русский язык: исторические судьбы и современность = Russian language: its historical destiny and present state : тр. и материалы Междунар. конгр. исследователей рус. яз. (Москва, 13-16 марта 2001 г.). - М. :Изд-во МГУ 2001. - С. 260-261.

<sup>4</sup>«O'zbek tilining izohli lug'ati» IV jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti; Toshkent-2008., 388-bet

masofadan uzatish va uni vaqtida tuzatishga xizmat qiladigan turli xil grafik belgilar yordamida amalga oshiriladigan kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi »<sup>5</sup>.

Grafologiya ko'plab sohalarda qo'llaniladi:

- ✓ psixodiagnostikada;
- ✓ ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tanlashda;
- ✓ oilaviy munosabatlarda;
- ✓ sud ekspertizasida.

Sud ekspertizasida ushbu usul gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va guvohning shaxsini aniqlash uchun ishlatiladi, noma'lum jinoyatchining psixologik portretini chizishga yordam beradi.

Inson yozganda uning individual xususiyatlari har bir harf shaklida namoyon bo'ladi, chunki tana a'zolarini, shu jumladan, qo'l ni ham miya va markaziy nerv tizimi boshqaradi. Natijada, yozish uslubi va shakliy belgilari genetik jihatdan aniqlangan individual shaxs turini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Insonning psixologik portretini chizish uchun grafologlar uch asosiy yo'nalishdan foydalanadilar:

- ✓ umumiy fiziologik (qoida tariqasida, psixologik holat o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi: hayajonlanish, charchoq, uyquchanlik);
- ✓ anatomik (qo'lning tuzilish xususiyatlari, o'naqay va chapaqayligi, ko'rish) ;
- ✓ psixologik (asab tizimining holati, inson muhiti, o'rganish) .

Aqliy xususiyatlarga temperament, fe'l-atvor va qobiliyat kiradi va bu shaxsning individual xususiyatlarida yetakchi o'rinni egallaydi, chunki ular inson xarakterini to'liq ochib berishga xizmat qiladi va butun hayoti davomida barqaror bo'ladi.<sup>6</sup>

Grafologik tadqiqotlardavomidayozma nutqning quyidagi xususiyatlari aniqlanadi: yozma matnda harflarning kattaligi, harflarning qiyaligi, yozuv izchilligi, tezligi (harflar orasidagi masofa), murakkabligi (soddalashtirilgan, ya'ni yozma belgilarning alohida elementlarini yo'qotish; murakkab, ya'ni qo'shimcha elementlarning yozma belgilarida mavjudligi), bosim kuchi. Bundan tashqari, yozuv harakatining yo'nalishi, harakatlarning nisbati, harakatlarning lokalizatsiyasi (harakat qayerdan boshlanib, qayerda tugashi, bosim kuchi va harakat tezligi), so'zlarning chastotasi, bo'shliqning mavjudligi va yozuvning boshqa xususiyatlari aniqlanadi<sup>7</sup>.

Tadqiq etilayotgan hujjat jinoyat ishni ochish uchun muhim vosita, ya'ni jinoyat sodir etilgan obyekt haqida ma'lumot berishi kerak (masalan, tuhmat mazmunidagi yozuv yoki terroristik harakatni sodir etganligi to'g'risida yolg'on xabar berilgan anonim yozuv); jinoyat hujumlar bilan bog'liq bo'lgan narsalar (masalan, muhim moliyaviy hujjatlar); jinoyatni ochish va jinoyat ishning holatini aniqlash uchun vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa hujjatlar (masalan, buxgalteriya hujjatlari yordamida davlat budjetiga soliqlarni

<sup>5</sup>Томилин, В. В. Основы судебно-медицинской экспертизы письма / В. В. Томилин. – М.: Медицина, 1974. 7-бет

<sup>6</sup>Кошманов П. М., Кошманов М. П. Признаки почерка в экспертно-криминалистическом исследовании: учеб. пособие. Волгоград, 2004.

<sup>7</sup>Михель Л. Сравнительное исследование почерков / Пер. Л. А. Филимоновой. Переводч. Группа КЮМО. М., 1982.

to'lamaganlik faktlari). Grafologik ekspertiza natijalari jinoiy ishni ochib berishda va jinoyatchining shaxsiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yozuv orqali «shaxsning rivojlanish darajasi, uning madaniyati, ba'zi bir kasbiy mahorat, moyillik, irodaviy fazilatlar, hissiy ta'sirchanligi, ba'zan hatto ijodkorlik, shuningdek, ruhiy me'yordan chetga chiqishi aniqlanadi. Ular qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar va jinoyatchilarning qo'l yozuvlarini taqqoslashni shaxsning jinoiy yo'nalishini aniqlashda asosiy vosita deb bilishi bejizga emas»<sup>8</sup>.

XIX asr nemis tadqiqotchisi I.H. Groman esa qo'lyozma matnlari orqali "bo'yni, yoshni, ovozni, ko'z va sochlarning rangini va hattoki yonoqlarning qizarishini ham aniqlash mumkin" degan fikrni ilgari surdi<sup>9</sup>.

Zamonaviy tilshunoslikda erishilgan yutuqlarga qaramay, biz ushbu sohada yetarli ishlar amalga oshirilgan deya olmaymiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'lyozma matnlari bilan har xil deviant xulq-atvorni aniqlash mumkin, unga rus tadqiqotchisi V.N. Obrazsov: "Qotillarning qo'lyozmasi bosim zarbining kuchliligi bilan ieroglif yozuviga o'xshash bo'lishi mumkin - deb ta'kidlagan. - U qat'iylik, ishonchni kuchaytirganda, hayajon va yozish tezligini egallaydi, chiziqlar uzunlikka yopishadi, so'zlar qo'shilmaydi. Harflar kerak bo'lgandan ancha kattaroq, ba'zan keraksiz darajada ulkan hajmga ega bo'ladi. Chiziqlar yo'nalishi bir tartibda bo'lmaydi"<sup>10</sup>.

Grafologik ekspertizada qo'lyozma matnning shaxsini aniqlashda dastlab yozuvning topografik xususiyatlariga urg'u beriladi. Tadqiqot davomida qo'lyozmaning quyidagi topografik jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- yozuv dinamikasi (yozuv ravon yozilganmi, ko'tarilish, pasayish kuzatiladimi, qabariqlik
- satr hajmi va so'zlar oralig'i;
- tinish belgilarining qo'llanishi va joylashuvi;
- harf elementlarining qo'llanilishi;
- harflar o'lchami (katta, o'rta, kichik va o'ta kichik shrift yozilganligi);
- nishab (o'ng tomonga og'gan, chap tomonga og'gan, vertikal);
- bosim kuchi (kuchli, yengil, o'rtacha);
- harflar orasidagi bo'shliqlar;
- harflarning bir-biriga mutanosibliigi;
- yozuv tezligi;
- so'zlarning chastotasi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarning har biri grafologik eksperizada yozuv muallifini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

<sup>8</sup>Наджимов О. Как узнать характер человека по его подписи: учебное пособие. М., 2001

<sup>9</sup>Бринев К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: монография / К. И. Бринев ; под редакцией Н. Д. Голева. Барнаул :АлтГПА, 2009. С. 32.

<sup>10</sup>Лесовская Т.В. Особенности письма больных шизофренией: Автореф. дисс. ... канд. медиц. наук. М., 1977.



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yozma nutq nafaqat gender nuqtayi nazaridan, balki yosh jihatidan ham o'zaro farqlanishlarga ega. Mana shu farqlanishlarga tayangan holda noma'lum xat ijrochisi va asosiy muallif haqida aniq bir xulosa chiqarish imkoni yaratiladi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, yozuv shakllari yosh xususiyatiga bog'liq holda o'zgarib boradi, ya'ni qo'l yozuvi erta bolalikdan shakllanadi: boshlang'ich sinflarda bola yozish qobiliyatini o'rganadi, 13-14 yoshga kelib, qo'l yozuvi har bir shaxsning xarakter xususiyatini namoyon etadigan individual belgilarga ega bo'ladi va 18-20 yoshga kelib u butunlay shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozish mahoratini o'stirish, harflarni asliga muvofiq holda shakllantirishga va husnixatga alohida e'tibor qaratiladi. Yozuvda harf shakllarining o'zgarishi yosh nuqtayi nazaridan o'zgarib, shakllanib boradi va bu shaxs psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Og'zaki va yozma nutq shakllanishi va rivojlanishini jins nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tadqiqotchilar ushbu sohada ayollarning ustunligini aniq daliliy faktlarga tayangan holda e'tirof etadilar. Ayollarda nutqning eng yaxshi rivojlanishi go'daklikdan voyaga yetguncha kuzatiladi. Qizlar o'g'il bolalarga qaraganda erta gapirishni boshlaydilar, ularning so'z boyligi, ayniqsa, maktab yoshigacha bo'lgan davrda o'sishi kuzatiladi. Maktab yoshiga yetgach, nisbatan uzunroq va mukammalroq jumalardan foydalanadilar, tovushlarni to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar va kamroq duduqlanishadi<sup>11</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda maktab yoshidagi qiz bolalar (7-14 yosh) yozma nutqi harf shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida kichik eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot uchun 2-sinfdan 6-singacha bo'lgan maktab yoshidagi qiz bolalarga "Onamga maktub" mavzusida matn yaratish vazifasi topshirildi va yaratilgan matnlarni grafologik tahlil qilish va taqqoslash orqali qiz bola harf shakllaridagi yosh jihatiga bog'liq holda ro'y beradigan o'zgarish va farqli jihatlari aniqlandi. Tadqiqotga jalb qilingan 50 nafar respondent tomonidan yaratilgan matnlar grafologik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi, maktab yoshidagi qizlarning yozuv xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar aniqlandi. Yuqoridagi tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, qizlarning yozma nutqida, asosan, quyidagi topografik belgilar aniqlandi:

- ✓ harf shakllari : yumaloq holda shakllantirilgan(34 nafar), burchakli shakllar esa nisbatan kamroq uchraydi (16 nafar);
- ✓ nishab: o'ng tomonga yo'naltirilgan(33 nafar), chap tomonga(11 nafar), vertikal(4 nafar), nishab goh o'ng, goh chapga yo'naltirilgan(2 nafar);
- ✓ bosim kuchi: o'rtacha bosim(26 nafar), kuchli (14 nafar), yengil (10 nafar);
- ✓ yo'nalish sifati: ravon va silliq (37 nafar), bir tekisda emas (13 nafar);
- ✓ bo'shliq: satr boshida (4 nafar), so'zlar oralig'ida(11 nafar), satr so'nggida(6 nafar), bo'shliq mavjud emas (29 nafar);
- ✓ boshlang'ich zarbalar: bo'rttirilgan(18 nafar), qisqa zarba (32 nafar).

<sup>11</sup> АнастасиА. Дифференциальная психология-М.: АпрельПресс, 2001. 37-бет

## 7-14 yoshli qizlar harf shakllarining topografik belgilar jadvali

T/r	Topografik belgilar	Respondentlar soni (nafar)	Foizda %
1.	Yumaloq holda shakllantirilgan matnlar	34 nafar	64%
2.	Burchaksimmon shakllantirilgan matnlar	16 nafar	36%
3.	Nishab o'ng tomonga yo'naltirilgan matnlar	33nafar	72%
4.	Nishab chap tomonga yo'naltirilgan matnlar	11 nafar	8%
5.	O'rtacha bosimda yozilgan matnlar	26 nafar	60%
6.	Kuchli bosimda yozilgan matnlar	14 nafar	24%
7.	Yengil bosimda yozilgan matnlar	10 nafar	16%
8.	Silliq va ravon yozuvli matnlar	37 nafar	48%
9.	Notekis yozilgan matnlar	13 nafar	52%
10.	Satr boshida bo'shliqning mavjudligi	4 nafar	4%
11.	So'zlar oralig'idagi bo'shliq	11 nafar	36%
12.	Satr oxirida	6 nafar	12%
13.	Bo'shliq mavjud emas	29 nafar	48%
14.	Bo'rttirilgan zarbalar	18 nafar	32%
15.	Qisqa zarbalar	32 nafar	68%

Dastlabki matnning tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 7-14 yoshdagi qizlarning 64 % i harf shakllarini dumaloq shaklda yozishni ma'qul ko'radi va harflarning yumaloq shaklda yozilishi dominant belgi sanaladi.

Shuningdek, o'qishda ham katta farqlar kuzatiladi: qizlar o'z tengdoshlari bo'lgan o'g'il bolalarga nisbatan ilgariroq o'qishni boshlaydilar; o'qiy olmaydigan bolalar orasida o'g'il bolalar turli tadqiqotlarda 60-100 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari, qizlarning o'qish ravonligi ham sezilarli darajada yuqori. E.M. Bakushevaning ta'kidlashicha, "9-11 yoshli qizlar, o'g'il bolalardan farqli o'laroq yozma nutqda qo'pol grammatik xatolarga yo'l qo'ymasliklari" ni aniqladilar;

- ularning nutqida "qat'iyatsizlik va nutqiy g'alizlik" deyarli uchramaydi;
- ularning talaffuzi yanada harakatchan, ular harf shakllarini osonroq va mukammalroq o'zlashtirishadi;
- ular mustaqil ravishda suhbatning yangi mavzusini topadilar va uni osonlikcha rivojlantiradilar<sup>12</sup> (Bakusheva, 1995).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvistik ekspertizada yozma matn orqali shaxsning gender xususiyatlarini aniqlashda, genderolingvistika, psixolingvistika, bilan bir qatorda grafologiyaning ham roli muhimdir. Tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotgan matn muallifi haqida aniq bir xulosaga kelish uchun dastlab, genderolingvistik xususiyatlarini aniqlash lozim bo'ladi. Bu xususiyatlar, birinchidan, biologik, ikkinchidan, ijtimoiy omillar bilan belgilanadi.

<sup>12</sup>Бакушева Е.М. Оразличиях в речевом поведении мальчиков и девочек (9-11 лет) // Язык: антропоцентризм и прагматика: Сборник исследований по антропологии / Сост. А.М. Холод. - Киев-М. - Кривой Рог, 1995.

Biologik omillar bosh miya faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan shaxsning o'ziga xos individual xususiyatlarini, erkaklar va ayollarning gormonal fonini va ular tomonidan yuzaga kelgan hissiy va aqliy bilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy omillarga esa nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda shaxsning turli xil ijtimoiy rollarni, shu jumladan jinsiy rollarni interiorizatsiya qilish jarayonlari kiradi.<sup>13</sup> Yuqorida ta'kidlangan har ikkala omil ham shaxs psixologiyasi, uning individual xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Судебно-почерковедческая экспертиза: Исследование рукописных текстов. Особенная часть 2-е изд..перераб. И доп. Москва 2007 г.
2. Dmitry V. Bakhtee V Forensic examination of anonymous handwritten documents in order to obtain data on the identity of Their author and performer. ORCID: 0000 -0002-0869-601X Criminalistics Department Ural State Law University Yekaterinburg, Russia. P-11
3. Musulmonova K. O'zbek yozmamatlaridalingvistikekspertiza o'tkazish maqsadiva asoslari. Wissenschaftliche Ergebnisse und Errungenschaften: 2020. 25. dezember. B-97
4. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования / И. Р. Гальперин. - М. : Наука, 1981. - 140 с.
5. Галяшина, Е. И. Основы судебного речеведения / Е. И. Галяшина / под ред. Проф. М. В. Горбаневского. - М. : СТЭНСИ, 2003. - 236 с.
6. Ионова, С. В. Корпусы письменных спонтанных текстов и их значение для лингвистики идентификации / С. В. Ионова // Теоретические и прикладные аспекты корпусных методов изучения текстов: материалы науч.-практ. Семинара (Волгоград, 5-6 нояб. 2015 г.). - Волгоград: Изд-во ВолГУ 2015. - С. 81-88.
7. Ионова, С. В. Признаки подготовленности письменной речи / С. В. Ионова // Актуальные проблемы комплексной судебной психолого-лингвистической экспертизы: Всерос. науч.-практ. Семинар с междунар. Участием (Ростов-на-Дону, 6-9 июня 2016 г.). - М.; Ростов н/Д, 2016. - С. 38-44.
8. Лебедева, Н. Б. Естественная письменная русская речь: проблемы изучения / Н. Б. Лебедева // Русский язык: исторические судьбы и современность = Russian language: its historical destiny and present state: тр. и материалы Междунар. конгр. Исследователей рус. яз. (Москва, 13-16 марта 2001 г.). - М. : Изд-во МГУ 2001. - С. 260-261.

<sup>13</sup>И. Т. Вепрева, Н. А. Купина Экспертный лингвистический анализ спорного текста. Учебно-методическое пособие. Екатеринбург. Издательство Уральского университета 2018.